

Namangan viloyat statistika boshqarmasi




RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5743,7 mlrd.so'mni**, o'sish **111,9 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab hajmi **3817,6 mlrd.so'mni** chiqarishning o'sish sur'ati **6,0 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **66,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **68,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5743,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 4,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 7,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-dekabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5398,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,0 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2018 yil	2017 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	15,0	16,3	92,3
Paxta linti, ming tonna	3,9	4,0	97,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	1042,0	1240,0	84,0
Vino, ming litr	1526,0	1131,0	134,9
Un, ming tonna	116,4	109,0	106,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	12,6	13,4	87,5



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 249,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3817,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 66,5 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat tovarlari vino-arog mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1250,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 104,2 %ga o'sdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 2567,6 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ga o'sdi.

2017 yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 66,7 % dan 2018 yilning yanvar-dekabr oyida 67,3 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga ortgani kuzatilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da





2017 yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 33,3 % dan 2018 yilning yanvar-dekabr oyida 32,7 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamaygani kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1320,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 118,4% ni tashkil etdi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,4% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 23,0% gacha oshdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 47,1 % ulushini), Uchqo'rg'on (8,7 %), Namangan (9,7 %), To'raqo'rg'on (8,5 %), Uychi tumani (7,1 %), Pop (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,2 %), Chortoq (1,7 %), Norin (2,4 %) , Mingbuloq (2,3 %) va Chust (3,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 48,1 %), Namangan (10,4 %), Uchqo'rg'on (8,7 %) hamda To'raqo'rg'on (8,2 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,8 %), Chortoq (2,1 %), Norin (2,1 %) , Mingbuloq (1,0 %) va Chust (3,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida (2017 yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 115,8 % ga), Pop (118,7 % ga), va Mingbuloq (132,7 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (4466,4 ming so'm), Namangan tumanida (3221,0 ming so'm), Uchqo'rg'on (3001,8 ming so'm) va To'raqo'rg'on (2228,6 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2106,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1400,4 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 3027,2 ming so'mni, Namangan tumanida 2326,4 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 1425,6 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1998,6 ming so'mni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,1 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 68,5 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (85,8 %), Namangan (86,1 %) va Chust (70,5) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (28,3 %), Pop (29,4 %) va Uchqo'rg'on (56,0 %) tumanlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 4300 dan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2049 tasi Namangan shahrida, 318 tasi Chust, 309 tasi Uychi, 303 tasi Namangan, 250 tasi Kosonsoy, 261 tasi To'raqo'rg'on, 166 tasi Chortoq, 159 tasi Uchqo'rg'on, 152 tasi Yangiqo'rg'on, 144 tasi Pop, 146 tasi Norin va 88 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 908 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 67,0 % Namangan shahri, Chust, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 yanvar holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80